

DAVLAT SEKTORIDA ASOSIY FONDLAR HISOBI VA NAZORATINING XORIJIY TAJRIBALARI

Iriskulov Temur Xayrulla o'g'li

Toshkent Moiya Instituti

Buxgalteriya hisobi va audit fakulteti talabasi

Davlat sektorida asosiy fondlar hisobi va nazoratining iqtisodiy rivojlangan chet el davlatlari tajribasini o'rganar ekanmiz ularda odatda yo xalqaro standartlarga maksimal darajada yaqinlashtirilgan milliy standartlar joriy etilganini yoki budjet sektorida moliyaviy hisobning xalqaro standartlari qoidalarining qo'llanilishiga guvoh bo'lamiz.

Budjet sektori uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida budjet tashkilotlari uchun buxgalteriya hisobi va hisoboti tizimini takomillashtirish O'zbekiston budjet tizimini isloh qilish yo'nalishlaridan biridir.

Ushbu islohotning zarurligi, eng avvalo, aynan buxgalteriya hisobi tizimlari sifatli va zamonaviy boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan axborotni aks ettirishda namoyon bo'ladi. Buxgalteriya hisoboti standartlarini uyg'unlashtirishning sxalqaro miqyosda ko'pchilik tomonidan qabul qilingan tizimi - IFRS (International Financial Reporting Standards)ga asoslangan Budjet sektori uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini budjet tashkilotlarining taqqoslanuvchan va sifatli moliyaviy hisobotini tayyorlash uchun xalqaro standartlarning yagona, keng qamrovli tizimi deb e'tirof etiladi.²⁶

Budjet sektori uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining qo'llanilishi davlat sektori faoliyatining natijalarini baholash uchun ko'proq imkoniyatlar taqdim etgan holda moliyaviy axborotning sifatini yaxshilash va ochiq-oshkoraligini oshirish imkonini beradi. Axborotning ishonchliligi va to'liqligini oshirish hisobiga davlat aktivlarining boshqarilishini yaxshilash, shuningdek davlatning moliyaviy hisobotini xalqaro ko'rsatkichlar bilan taqqoslash imkoniyati yaratiladi.

Xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan moliyaviy hisobning 16-sonli xalqaro standarti "Asosiy fondlar" deb atalib, ushbu standartning maqsadi moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar tadbirkorlik subyekting asosiy fondlariga qilgan investitsiyalarini va bunday investitsiyalardagi o'zgarishlar haqidagi ma'lumotlarni tushunishi uchun asosiy fondlarni hisobga olish tartibini belgilab berishdan iboratdir.

²⁶ www.sciencedirect.com – Science, health and medical journals

Jahon amaliyotida yuqoridagi standartga nisbatan budget hisobi xalqaro standarti mavjud bo'lib, u 17-sonli jamoat tashkilotlari buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (IPSAS 17 – International Public sector accounting standart) – “Mol-mulk, zavod va asbob-uskuna” deb ataladi.

Ushbu xalqaro standart qoidalari quyidagi holarda qo'llanilmasligi ko'rsatilgan:

1. Nodavlat sektori egalik qiluvchi asosiy fondlar hisobi uchun;
2. Asosan sotish uchun mo'ljallangan deb tasniflanadigan asosiy fondlar uchun;
3. Qishloq xo'jaligi faoliyatiga tegishli biologik aktivlar uchun;

Ushbu xalqaro standart talablariga ko'ra budget tashkilotida asosiy fondlar obyektining tannarxi faqatgina quyidagi shartlar bajarilganda aktiv sifatida tan olinadi:

- tadbirkorlik subyekti tomonidan asosiy vosita bilan bog'liq kelgusi iqtisodiy naf olinishi ehtimoli mavjud bo'lsa;
- aktivning tannarxi ishonchli baholana olsa.

Ehtiyot qismlar, yordamchi va ta'mirlovchi jihozlar kabi moddalar asosiy fondlar ta'rifiga mos kelganida ushbu jamoat tashkilotlari buxgalteriya hisobining xalqaro standartiga muvofiq tan olinadi. Aks hollarda bunday moddalartovar-moddiy zaxiralar sifatida tasniflanadi.

Asosiy fondlar obyektlari xavfsizlik yoki atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadlarida sotib olinishi mumkin. Bu kabi asosiy fondlarni sotib olish mavjud bo'lgan qandaydir asosiy vosita obyektidan olinadigan kelgusi iqtisodiy nafni bevosita oshirmasada, budget tashkiloti boshqa aktivlaridan kelgusida iqtisodiy naf olishi uchun zarur bo'lishi mumkin. Bunday asosiy fondlar obyektlari aktiv sifatida tan olinadi, chunki ular yordamida budget tashkiloti tomonidan ular bilan bog'liq bo'lgan aktivlardan kelgusida olinadigan iqtisodiy naf bunday obyektlar sotib olinmaganida olinadigan nafdan ko'ra ko'proq bo'ladi. Masalan, kimyoviy maxsulotlarni ishlab chiqaruvchi tashkilot xavfli kimyoviy moddalarni ishlab chiqarish va saqlash bilan bog'liq ekologik talablarga rioya etish maqsadida yangi kimyoviy moddalar bilan ishlash texnologiyalarini jalb etishi mumkin. Bunda tegishli yangi texnologiyalar aktiv sifatida tan olinadi, chunki ularsiz tijoriy faoliyat bilan shug'ullanuvchi budget tashkiloti kimyoviy maxsulotlarni ishlab chiqara olmaydi va sota olmaydi.

Ushbu xalqaro standart va xalqaro amaliyot talab qilyotgan qoidalarga ko'ra asosiy vositaning tannarxi quyidagilardan tashkil topadi:

- savdo chegirmalarini va imtiyozlarini chegirgan holda, uning xarid narxi, jumladan import bojlari va sotib olish bilan bog'liq qoplanmaydigan soliqlar;

- aktivni undan budjet tashkilotining rahbariyati tomonidan ko'zlangan holda foydalanish uchun zarur bo'lgan joy va holatiga olib kelish bilan bog'liq bevosita xarajatlar.

- asosiy vosita obyektini demontaj qilish va olib tashlash xamda u joylashgan joydagi tabiy resurslarni qayta tiklash xarajatlarining boshlang'ich bahosini. Budjet tashkiloti asosiy vosita sotib olingan paytda yoki undan ma'lum davr mobaynida tovar-moddiy qimmatliklarni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlarda foydalanish oqibatida ushbu xarajatlar bo'yicha majburiyatni o'z zimmasiga oladi.

Quyidagilar bevosita xarajatlarga misollardir:

- asosiy vosita obyektini barpo etish (qurish) yoki sotib olish natijasida bevosita hosil bo'ladigan hodimlarga haq to'lash xarajatlari;

- joyni tayyorlash xarajatlari;

- etkazib berish va ortish-tushirish bilan bog'liq boshlang'ich xarajatlar;

- o'rnatish va montaj bo'yicha xarajatlar;

- aktivning to'g'ri ishlashini sinab ko'rish xarajatlaridan aktivni tegishli joyga va holatga keltirish paytida ishlab chiqarilgan mahsulotni (uskunalarni sinovdan o'tkazishda ishlab chiqarilgan mahsulotlar kabi) sotishdan olingan sof tushumning ayirmasi;

- malakali xizmatlar uchun haqlar.

Ushbu xalqaro standart va xalqaro amaliyot talab qilyotgan qoidalarga ko'ra asosiy fondlar obyektiga kirmaydigan xarajatlarga quyidagilar misol bo'la oladi:

- yangi ishlab chiqarish obyektini tashkil etish xarajatlari;

- yangi maxsmulot yoki xizmat turini tatbiq etish bilan bog'liq xarajatlar (shu jumladan, reklama va marketing faoliyati xarajatlari);

- tijoratni yangi joyga yoki mijozlarning yangi toifasiga moslashtirish bilan bog'liq xarajatlar (shu jumladan, hodimlarni qayta tayyorlash xarajatlari);

- ma'muriy va boshqa umumiy ustama xarajatlar.²⁷

Ayrim operatsiyalar asosiy fondlar obyektini qurish yoki barpo etish bilan bog'liq bo'ladi, ammo bu obyektini undan budjet tashkiloti rahbariyati tomonidan ko'zlangan holda foydalanish uchun zarur bo'lgan joy va holatiga keltirish uchun zarur bo'lmaydi. Bu yordamchi operatsiyalar qurilish yoki barpo etish ishlari davomida yoki undan oldin ro'y berishi mumkin. Masalan, qurilish maydonidan qurilish ishlari boshlanishidan oldin avtostoyanka sifatida foydalanishdan foyda olinishi mumkin. Yordamchi operatsiyalar obyektini rahbariyat tomonidan ko'zlangan holda foydalanish uchun zarur bo'lgan joy va

²⁷ www.sciencedirect.com – Science, health and medical journals

holatiga keltirish uchun zarur bo'lmaganligi sababli, yordamchi operatsiyalar bilan bog'liq daromad va xarajatlar foyda yoki zararining tarkibida tan olinadi va daromad yoki xarajatlarning tegishli guruhlariga kiritiladi.

Asosiy fondlar obyektining tannarxi bu tan olish sanasiga ularning pul mablag'laridagi ekvivalentidir. Agar ular uchun to'lovning oddiy tijorat krediti shartlarida sotishga qaraganda muddati kechiktirilgan bo'lsa, aktivning pul mablag'laridagi ekvivalenti bilan umumiy to'lov o'rtasidagi farq foiz xarajatlari sifatida kredit davri davomida tan olinadi.

Aktiv sifatida tan olinganidan so'ng, asosiy vosita obyektining uning tannarxidan har qanday jamg'arilgan eskirish summasi va har qanday qadrsizlanish bo'yicha yig'ilgan zararlar chegirib tashlangan qiymatda hisobga olinishi kerak.

Aktiv sifatida tan olinganidan so'ng haqqoniy qiymati ishonchli tarzda baholanishi mumkin bo'lgan asosiy vosita obyektining qayta baholangan qiymati bo'yicha hisobga olinishi kerak. Bunda uning qayta baholangan qiymati bo'lib uni qayta baholash sanasiga bo'lgan haqqoniy qiymatidan keyinchalik jamg'arilgan eskirish summasi va keyinchalik yig'ilgan qadrsizlanish bo'yicha zararlar chegirilgandagi qiymati hisoblanadi. Aktivning balans qiymati hisobot davri oxiridagi haqqoniy qiymati asosida aniqlanadigan qiymatidan muhim darajada farq qilmasligi uchun qayta baholashlar yetarlicha muntazam ravishda o'tkazilishi kerak.